O‘ZBEK TILIDA DISKRIMINATSION BIRLIKLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Maqsudaliyeva Yodgorxon No‘monjon qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogik instituti tayanch doktoranti
yodgorxonmaqsudaliyeva@gmail.com
+998972252794

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida qo‘llanadigan diskriminatsion birliklarning semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlari yoritiladi. Diskriminatsion birliklar shaxs yoki guruhning millati, irqi, diniy qarashlari, ijtimoiy mavqei, kasbi, jinsi yoki boshqa ijtimoiy belgilariga nisbatan salbiy munosabatni ifodalovchi til birliklari sifatida talqin qilinadi. Ularni aniqlashda lug‘aviy ma’no bilan bir qatorda kontekst, kommunikativ maqsad, adresant va adresat munosabati hamda nutq vaziyati muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, internet kommunikatsiyasida bunday birliklarning qo‘llanish xususiyatlari va lingvistik ekspertizada ularni aniqlashning kompleks mezonlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: diskriminatsiya, diskriminatsion birlik, kamsitish, haqorat, salbiy konnotatsiya, baholovchi leksika, pragmatika, kontekst, lingvistik ekspertiza, lingvokriminalistika.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan sharoitda tilning ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi o‘rni ortib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va internet platformalarida fikrni erkin ifodalash bilan birga, kamsituvchi, haqoratlovchi va stigmatizatsiya qiluvchi birliklarning qo‘llanish holatlari ham uchraydi. Shu sababli bunday birliklarni lingvistik jihatdan o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Diskriminatsion birlikni baholashda faqat lug‘aviy ma’noni aniqlash yetarli emas; uning kimga nisbatan, qaysi vaziyatda va qanday kommunikativ maqsadda qo‘llanganini ham hisobga olish zarur. Tezisning maqsadi o‘zbek tilidagi diskriminatsion birliklarning asosiy lingvistik belgilarini semantik, pragmatik va stilistik jihatdan tavsiflashdan iborat. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitining keskin kengayishi, ijtimoiy tarmoqlar, izoh maydonlari (kommentariya) va anonim platformalarning ommalashuvi tilning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini tubdan o‘zgartirdi. Raqamli kommunikatsiya nutqiy faollikni misli ko‘rilmagan darajada oshirgani holda, ayni paytda nutqiy tajovuz, kamsitish va guruhlararo adovatni ifodalovchi til birliklarining ham keng tarqalishiga sharoit yaratdi. Mana shu jarayonlar oqimida “diskriminatsion birliklar” deb atash mumkin bo‘lgan o‘ziga xos lingvistik hodisa alohida tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

DISKRIMINATSION BIRLIKLAR TUSHUNCHASI

Diskriminatsion birliklar shaxs yoki shaxslar guruhini muayyan ijtimoiy belgisi asosida kamsitish, mensimaslik yoki salbiy baholashga xizmat qiluvchi verbal vositalardir. Ular millat, etnik kelib chiqish, diniy qarash, ijtimoiy mavqe, kasb, yashash hududi, jins va boshqa belgilar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday birliklar bevosita kamsituvchi birliklar, salbiy baholovchi nomlashlar, stereotipik ifodalar, metaforik va ko‘chma ma’nodagi birliklar, ijtimoiy mavqe yoki kelib chiqishga asoslangan salbiy atamalar hamda muayyan guruhni umumlashtirib salbiy tavsiflovchi birliklar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Birlikning nominativ ma’nosi bilan nutqdagi pragmatik ma’nosi o‘rtasidagi farqni aniqlash muhimdir. Diskriminatsion til hodisalarining nazariy asoslari, avvalo, yurislingvistika (N.D.Golev) doirasida ishlab chiqilgan. Golev “tilning huquqiy jihatlarini o‘rganuvchi yurislingvistika

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bilan huquqning lingvistik jihatlari bilan shug‘ullanuvchi lingvoyuristikani farqlaydi”[1]; bu chegaralanish diskriminatsion birlik tahlilida tilshunos va huquqshunos vazifalarini aniq taqsimlash imkonini beradi. G‘arb tilshunosligida T.A. van Deyk irqchilik diskursi va “mafkuraviy kvadrat” nazariyasini[2], R.Vodak va M.Rayzigl esa diskriminatsiyaning diskurs-tarixiy tahlili modelini yaratdilar. Sud-lingvistik ekspertiza nazariyasi K.I.Brynyov[3], I.A.Sternin va uning hammuallflari[4], O.V.Kukushkina, Yu.A.Safonova, T.N.Sekerajlar tomonidan[5] shakllantirildi. O‘zbek tilshunosligida haqorat va obro‘sizlantirish matnlarini ekspertizadan o‘tkazish masalalari N. Najmiddinova[6] va K.Musulmonova[7] ishlarida ko‘tarilgan, biroq diskriminatsion birlik, aynan, terminologik-tasniflovchi tushuncha sifatida hali maxsus tadqiq etilmagan.

SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Diskriminatsion birliklarning asosiy belgilaridan biri salbiy semantik va konnotativ mazmunga egaligidir. Semantik jihatdan ijtimoiy mavqeni, milliy yoki etnik belgini, diniy mansublikni, kasb yoki faoliyatni, aqliy qobiliyatni, tashqi ko‘rinish yoki jismoniy xususiyatni kamsituvchi birliklarni ajratish mumkin. Biroq birlikning o‘zida salbiy semaning mavjudligi uning har doim diskriminatsion ekanini anglatmaydi. Ayrim birliklar bir vaziyatda oddiy tavsiflovchi vosita, boshqa vaziyatda esa kamsituvchi vosita sifatida qo‘llanishi mumkin. Shuning uchun ekspertik tahlilda lug‘aviy ma’no bilan birga kontekstual ma’no ham aniqlanadi. Diskriminatsiyaning til orqali namoyon bo‘lishini nazariy jihatdan eng izchil o‘rgangan yo‘nalish – tanqidiy diskurs-tahlil (Critical Discourse Analysis). T.A. van Deyk irqchilik va elitar diskursni tadqiq qilar ekan, diskriminatsion matnlarning markaziy kognitiv tamoyili sifatida “mafkuraviy kvadrat” (ideological square) prinsipini ajratadi: o‘z guruhini (“biz”) ijobiy, o‘zga guruhni (“ular”) salbiy taqdim etish, o‘zining ijobiy va o‘zganing salbiy xususiyatlarini ta’kidlash,

[1]Голев Н.Д. Юридический аспект языка в лингвистическом освещении // Юрислингвистика-1: проблемы и перспективы. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 1999. – С. 7–38. Olimning yurislingvistika va lingvoyuristika o’rtasidagi farqlanishi diskriminatsion birliklarni tahlil qilishda metodologik ahamiyatga ega: tilshunos birlikning kamsituvchi semantikasini aniqlaydi, huquqiy malakalashni esa sud amalga oshiradi. Mazkur chegaralanish ushbu maqolaning butun tahliliy mantig’iga asos qilib olindi.

[2]Van Dijk T.A. Elite Discourse and Racism. – Newbury Park, CA: Sage, 1993. – 320 p. Van Deykning «mafkuraviy kvadrat» («biz» haqida ijobiy, «ular» haqida salbiy taqdimot) konsepsiyasi diskriminatsion birliklarning kognitiv mexanizmini tushuntiradi va implitsit kamsitishni aniqlash uchun nazariy tayanch beradi.

[3]Бринёв К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. – Барнаул: АлтГПА, 2009. – 252 с. (qayta nashri: Судебная лингвистическая экспертиза: методология и методика. – М.: ФЛИНТА, 2020. – 300 с.). Brynyovning lingvistik faktni huquqiy bahodan ajratish tamoyili – diskriminatsion birliklar ekspertizasining metodologik o’zagi; ekspert faqat lingvistik dalilni qayd etadi, «ekstremizm» yoki «adovat» kabi yuridik kvalifikatsiyani bermaydi.

[4]Стернин И.А., Антонова Л.Г., Карпов Д.Л., Шаманова М.В. Выявление признаков унижения чести, достоинства, умаления деловой репутации и оскорбления в лингвистической экспертизе текста. – Ярославль, 2013. – 35 с. Mualliflar taklif etgan «salbiy axborot + uning aniq shaxsga qaratilganligi» diagnostik kompleksi shaxsga qaratilgan haqoratni aniqlashda samarali; ammo diskriminatsion birliklar ko’pincha shaxsga emas, balki butun guruhga qaratilgani bois ushbu modelni guruh obyektiga moslab kengaytirish zarurligini ko’rsatamiz.

[5]Кукушкина О.В., Сафонова Ю.А., Секераж Т.Н. Теоретические и методические основы судебной психолого-лингвистической экспертизы текстов по делам, связанным с противодействием экстремизму. – М.: РФЦСЭ при Минюсте России, 2011. – 326 с. Ushbu uslubiyotda guruhga nisbatan adovat, dushmanlik va kamsitishni qo’zg’atuvchi nutqiy harakatlar tizimi ishlab chiqilgan; biz uni diskriminatsion birliklarning illokutiv tasnifi uchun asos sifatida qabul qilamiz, biroq o’zbek lingvomadaniy konteksti uchun moslashtirish lozimligini ta’kidlaymiz.

[7]Мусулмонова К. O’zbek yozma matnlarida lingvistik ekspertiza o’tkazish maqsadi va asoslari // Жамият ва инновациялар. – 2020. – № 1. Muallif o’zbek yozma matnlari ekspertizasining maqsad va asoslarini belgilaydi; bu milliy lingvoekspertologiya shakllanishining dastlabki bosqichini aks ettiradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

o‘zining salbiy va o‘zganing ijobiy jihatlarini esa susaytirish”[8]. Bu nazariya diskriminatsion birlikning yolg‘iz so‘z darajasida butun matn strategiyasi darajasida ishlashini ko‘rsatadi.

PRAGMATIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

Pragmatik tahlil so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, nutq adresati va vaziyat xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bunda adresant va adresat munosabati, nutqning maqsadi, muloqotning rasmiy yoki norasmiyligi, ommaviy yoki shaxsiy xarakteri, birlikning takroriy qo‘llanishi, kinoya, masxara va istehzo kabi omillar hisobga olinadi. Biror birlik hazil, iqtibos, ilmiy izoh yoki tanqid doirasida qo‘llanishi mumkinligi sababli uni kontekstdan uzib avtomatik tarzda diskriminatsion birlik deb baholash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Stilistik jihatdan disfemizm, metafora, kinoya, masxara va boshqa ekspressiv vositalar diskriminatsion mazmunni kuchaytirishi mumkin.

INTERNET KOMMUNIKATSIYASIDA QO‘LLANISHI

Internet diskursida diskriminatsion birliklar izohlar, postlar, videolar ostidagi kommentariyalar va shaxsiy yozishmalarda uchrashi mumkin. Internet kommunikatsiyasining qisqalik va ekspressivlik xususiyati sababli salbiy konnotatsiyali birliklardan fikrni kuchaytirish vositasi sifatida foydalanish holatlari kuzatiladi. Bunday materiallarni ekspertiza qilishda bitta jumla bilan cheklanmasdan, postning oldingi va keyingi qismlari, kommentariyalar ketma-ketligi hamda adresatga murojaat shakllari kabi omillarni ham tahlil qilish maqsadga muvofiq.

LINGVISTIK EKSPERTIZADA ANIQLASH MEZONLARI

Diskriminatsion birliklarni lingvistik ekspertiza qilishda kompleks metodologik yondashuv zarur. Birinchi bosqichda leksik-semantik tahlil orqali birliklarning lug‘aviy va konnotativ ma’nolari aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda pragmatik tahlil yordamida kommunikativ maqsad va adresat belgilanadi. Uchinchi bosqichda stilistik vositalar, jumladan disfemizm, metafora, kinoya va masxara aniqlanadi. To‘rtinchi bosqichda birlikning matn tarkibidagi o‘rni va boshqa gaplar bilan mazmuniy aloqasi o‘rganiladi. Yakunda ushbu belgilar asosida kamsituvchi mazmunni ifodalash darajasi baholanadi.

XULOSA

O‘zbek tilidagi diskriminatsion birliklar til va jamiyat munosabatining muhim ko‘rinishlaridan biridir. Ularni aniqlashda lug‘aviy ma’no bilan bir qatorda kontekstual, pragmatik va stilistik xususiyatlarni ham hisobga olish zarur. Ayniqsa, internet kommunikatsiyasida adresat, kommunikativ maqsad va matnning umumiy mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi. Leksik-semantik, pragmatik, stilistik va matniy tahlil usullarining kompleks qo‘llanilishi lingvistik ekspertiza xulosalarining ilmiy asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Musulmonova K. O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari. – Toshkent, 2021.
2. Qodirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. – Toshkent: Bookmany print, 2022.
3. Qurbonova M., Yo‘ldosheva M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.
4. Suvanov Z. Badiiy matnning lingvistik ekspertizasi ilmiy muammo sifatida // O‘zbekiston: til va madaniyat. – 2022.
5. O‘rozov J. O‘zbek tili lingvokriminalistikasi. – Toshkent, 2023.
6. Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmatika asoslari. – Toshkent, 2020.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.